



**YOSHLARNING TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING BUGUNGI
KUNDAGI O‘RNI**

Mirzamamitova Muslima Shuxrat qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy va amaliy fanlar” fakulteti

“Musiqqa ta’limi yo’nalishi” 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning bugungi kundagi o‘rni xaqida so‘z boradi. Milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasiga ta’siri xaqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qadriyatlar, yoshlar, milliy, halollik, oila, ma’naviyat, axloqiy tarbiya, globallashuv, jamiyat, barkamol avlod.*

Kirish

Yoshlarning tarbiyasida milliy qadriyatlarning bugungi kundagi o‘rni juda katta. Xususan yosh avlodni tarbiya qilar ekanmiz unga, azal azaldan bizga meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarimizni singdirmog‘imiz lozim. Vatanga muhabbat, halollik, mehr oqibat tuyg‘ularini uyg‘otib yosh avlodni barkamol va yetuk shaxs qilib tarbiya qilishimiz zarur. Har bir xalqning milliy qadriyatlari uning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va madaniy merosida mujassam bo‘ladi. Milliy qadriyatlar shaxsning ma’naviy rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi va jamiyat bilan bog‘liqligida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki globalizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida yoshlar turli tashqi ta’sirlarga duch kelmoqda. Shu sababli, milliy qadriyatlarni yoshlarning hayotiga singdirish – ularni sog‘lom, ma’naviy barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalashning muhim vositasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyayevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31. 12. 2019-yildagi 1059-son qarorini aynan tarbiya sohasida amal qilinishi kerak bo‘lgan ustuvor jihatlar bor. Qarorda “...yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodaviylik, mafkuraviy immunitet, innovatsion fikirlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma bosqich shakllantirish... ”kerakligi belgilangan.

Asosiy qism

Dunyodagi barcha xalqlarning uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlari mavjud. Millatimizning ham uzoq o‘tmishlardan buyon saqlanib qolgan juda ko‘p milliy qadriyatlari mavjud bo‘lib, yoshlarni tarbiyalashda aynan mana shu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qadriyatlarining o'zini beqiyos desak adashmagan bo'lamiz. Tarbiya insonni kim ekanligini yaqqol namoyon etadi. Go'zal xulq atvoriga ega bo'lish uchun milliy qadriyatlarimizni bilish juda muhim sanaladi. Milliy qadriyatlarimiz asosida biz aslida kim ekanligimiz, kimning avlodlari ekanligimiz namoyon bo'ladi. Bugungi kunda kelajak avlodning tarbiyasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun yoshlarni xar tomonlama tarbiyalash joiz. Tarbiya oiladan boshlanadi albatta. Har bir ota-ona farzandini to'g'ri tarbiya qilsa undan kelajakda buyuk shaxs yetishib chiqadi. Ustoz va oiladan milliy qadriyatlarga tayangan xolda tarbiya qilingan yoshlarda dunyoqarash kengayib, vatanparvarlik xissi oshib o'zlikni anglaydi. Tarbiya so'zi arabcha "tarbiya", "tarbiyat" ma'nolarini anglatadi.

Qadriyat – inson yoki jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan, hurmat qilinadigan, qadrlanadigan g'oya, me'yori, xulq-atvor yoki madaniy-tarbiyadir. Qadriyat bizga ota bobolarimizdan, qolgan meros desak adashmagan bo'lamiz. Qadriyat asosan, shaxsni tarbiyalashda unga nima yaxshi va nima yomon ekanligini tushuntirishda, ijtimoiy hayotda muhim hisoblanadi. Qadriyatlar turlicha bo'lib, milliy, diniy, madaniy, estetik, ijtimoiy, umuminsoniy turlari bor. Bulardan misol qilib oladigon bo'lsak, milliy qadriyatlar yoshlarni o'zligini anglashga, ularning o'ziga ishonchini va milliylikni shakllantirishda yordam beradi. Yoshlarni mehmondo'stlikka, halollikka, bir-birga bo'lgan o'zaro hurmatga, mehr shafqat kabi ijobiy fazilatlarni o'rganishga undaydi. Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot yoshlarni turli madaniy va axloqiy ta'sirlarga duchor qilmoqda. Shu sababli, milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlar hayotiga singdirish bugungi kunda milliy o'zlikni himoya qilish va ma'naviy barkamollikni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Ma'naviyatimizning o'zagi milliy - an'analarimiz oila bag'rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan bo'lib, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida etib kelgan urf odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz ham milliylikimiz ramzi bo'lib, katta qadrga egadir. Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Milliy qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib etishishi uchun xizmat qiladi. Yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Milliy qadriyatlarimizga ta'rif bersak qadriyatlarining tag zaminida mahalla





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



turadi. Mahalla bu insoniylik mehr-shafqat boshlanadigan makon hisoblanadi. Bir-biriga mehr oqibat, qo'ni-qo'shnichilik aloqalari olib boriladi. Yana bir milliy qadriyatlarimizdan biri bu mahalla. Arabcha so'zdan olingan bo'lib, "makon, joy" degan ma'nolarini bildiradi. Ya'ni mahalla so'zi, masalalarni yechadigan joy degani.

Xalqimizda, bitta farzandga yeti mahalla ota-ona degan gap, bejiz aytilmagan albatta. Mehr oqibat bor joyda hamisha tinchlik-totuvlik hukm suradi.

Milliy qadriyatlarimiz yoshlar tarbiyasida shakllanib borar ekan, bunday yurtda hamisha tinchlik-totuvlik hukm suradi. Mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, halollik, mehr oqibat yoshlarning kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarining o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni milliy qadriyatlaridan habardor etib, uni yetuk va barkamol shaxs sifatida tarbiya olishi uchun, oila va o'qituvchi tomonida berilgan ta'lim tarbiya juda muhim xisoblanadi. Milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy merosimizni saqlash, balki yosh avlodning axloqiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ular yoshlarda vatanparvarlik, hurmat, halollik, mehnatsevarlik va o'z millati bilan faxrlanish kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolov Olimjon Chorshamiyevich. Umumiy pedagogika O'quv qo'llanma. Toshkent" NIF MSH" 2023.
2. <https://cyberleninka.ru>. Milliy va diniy qadriyatlarining inson tarbiyasidagi o'rni
3. <https://www.muslim.uz/> yoshlar-tarbiyasida-milliy-qadriyatlarimizning o'rni.

